

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING AXLOQIY RIVOJLANTIRISHI YO'LLARI

JDPI Umumiy pedagogika kafedrasida katta
o'qituvchisi Sanaqulova Zilola,
Musiqqa madaniyat fakulteti, Vokal va
cholg'u ijrochiligi II kurs talabasi
Rahmonova Madinabonu

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy rivojlantirish masalalari haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Tarbiya, muhabbat, maktab, intizom, muomala, axloqiy masalalar.

Tarbiya bizdan ko'p narsalarni talab qiladi. Masalan, oila muqaddasligini chuqur anglash kerak. Avlodlar o'zgarishi mumkin, yillar bir-biriga o'xshamasligi mumkin. Ammo yurakdagi mehr-muhabbat hech qachon o'zgarmaydi. Muhabbat bu- avvalo inson o'ziga ishonishi, o'zini hurmat qilish uchun ham jasorat talab qiladi. Farzandlar o'zidan o'zi katta bo'lib qolmaydi ularga kiyim, oziq-ovqat, uy-joy zarur. Shuningdek, albatta ta'lim olishi uchun sharoit kerak. Afsuski, hozirgi kunda ular uchun qo'l telefoni zarur deb hisoblashadi. Biroq farzandlar tarbiyasi uchun eng muhimi insoniy samimiyat va ota-onaning e'tibori va mehr-muhabbatidir. Shunaqangi me'yorlar mavjudki ularni o'zgartirish mumkin emas. Bu insonning biologik xususiyatlari hisoblanadi. ona tengligi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy rivojlanishi muammosi dolzarb bo'lib, zamonaviy jamiyatdagi mavjud vaziyat bilan bog'liq. Insonning qadriyatlarini saqlash va uzatish usuli sifatida madaniyatdan begonalashishi natijasida vujudga keladigan bo'shliq, ma'naviyatning etishmasligi, yosh avlodda yaxshilik va yomonlik tushunchasini o'zgartirishga olib keladi va jamiyatni xavf-xatar oldida qo'yadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalash zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyalashning eng qiyin vazifalaridan biridir. O'qituvchilar ushbu dasturlarning xilma-xilligi bilan bolalarning tajovuzkorligi, shafqatsizligi, emotsional karligi, o'zlari va o'z

manfaatlaridan ajralib qolishlari kuchayganini ta'kidlaydilar. Ayniqsa, hozir shafqatsizlik va zo'ravonlik tez -tez uchrab turgan davrda axloqiy tarbiya muammosi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Shu munosabat bilan, insonning axloqiy fazilatlarini tarbiyalashning turli usullarini tanlash va ulardan oqilona foydalanish hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim muassasalari o'qituvchilari oldiga qo'ygan asosiy vazifalaridan biridir. Axloqiy tarbiya, bolani takomillashtirish masalalari jamiyatni har doim tashvishga solgan. Bolalar bog'chasi tarbiyalanuvchilarining axloqiy tarbiyasini tashkil etish, ularning axloqiy me'yorlari va axloqini shakllantirish zarurligi aniq. Axloqiy me'yorlarning mohiyatini, insonning jamiyatga, jamoaga, mehnatga, atrofdagilarga va o'ziga bo'lgan axloqiy munosabatlarining mohiyatini ochib berish uchun har xil vositalari va usullardan foydalanish.

Tarbiya bizdan ko'p narsalarni talab qiladi. Oila muqaddasligini chuqur anglash kerak. Avlodlar o'zgarishi mumkin, yillar bir-biriga o'xshamasligi mumkin. Ammo yurakdagi mehr-muhabbat hych qachon o'zgarmaydi. Muhabbat bu- avvalo inson o'ziga ishonishi, o'zini hurmat qilish uchun ham jasorat talab qiladi. Farzandlar o'zidan o'zi katta bo'lib qolmaydi ularga kiyim, oziq-ovqat, uy-joy zarur. Shuningdek, albatta ta'lim olishi uchun sharoit kerak. Afsuski, hozirgi kunda ular uchun qo'l telefoni zarur deb hisoblashadi. Biroq farzandlar tarbiyasi uchun eng muhimi insoniy samimiyat va ota-onaning e'tibori va mehr-muhabbatidir. Shunaqangi me'yorlar mavjudki ularni o'zgartirish mumkin emas. Bu insonning biologik xususiyatlari hisoblanadi. ona tengligi,

Bugungi kunda oilaviy tarbiyaning qiyinlashuvi shundaki, birinchidan, jamiyat taraqqiy etib borgani sari har tomonlama yetuk insonni shakllantirish talablari ortib boraveradi. Bu esa oilada bolaga estetik, jinsiy tarbiya, axloqiy tarbiya berish sifati va ko'lamini oshirish talabini qo'yadi. Ta'lim-tarbiya, odob-axloq bolalikdan berilgani ma'qul. Rasululloh (a.s.): "Birontangiz o'z farzandlaringizni tartib-intizomga o'rgatsa, bu har kuni sadaqa bergandan yaxshiroqdir", deya marhamat qilganlar. Bolalarni intizomga o'rgatish oila

mustahkamligiga asos bo'ladi. Islom shu ma'noda ota-onalarni o'z farzandlariga sog'lom tarbiya berishga rag'batlantiradi. Hadisi sharifda “Farzandlaringizni hurmat qiling va ularni yaxshi xulq bilan xulqlantiring” deb ta'kidlangan. Farzand tarbiyasi jarayonida bola huquqlarining kamsitilmasligi talab etiladi. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg'ulariga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Taniqli pedagog A.S.Makarenko besh yoshgacha bo'lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o'ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o'tgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: “...tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo'lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi”. Mana shu jarayonda bola tarbiyasiga o'ta e'tiborli bo'lish lozim. Yoshlarning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini shakllantirishda, ajdodlarimiz merosi ahamiyati katta. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilariga sharq allomalari o'z asarlarida ahloqiy tarbiya va ta'lim berish, haqida fikrlar bildirishgan. Shu jumladan Imom Buxoriyning “al-Adab al-mufrad hadislar to'plami, Abu Lays Samarqandiyning “Tanbehul g'ofiliyn” asarlarida farzandlarga yuksak insoniy fazilatlarni kamol toptirish tarannum etilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy rivojlanishda, ahloqiy meyorlarni mazmun mohiyatini tushuntirib, ko'nikmalar hosil qilish kerak. Bu borada muassasada mashg'ulotlar o'tish bilan birgalikda, san'at, sport sohalarida madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish lozim. Shu bilan birgalikda oliy ta'lim, xalq ta'lim, mahalla, oila va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik rivojlantirish kerak. Bu esa farzanlarimizni odamlar bilan muomalada shirinso'z, muloyim, bosiq va kamtar bo'lishiga; odamlar xursandchiligini baham ko'rish, g'am-anduhidan qayg'urish, mol-mulkiga xiyonat qilmaslik, yaxshilikka chorlab, yomonlikdan qaytarish, husni xulqiga xos fazilatlari rivojlanadi. Shuning uchun farzandingizga ana shu xislatlarni bolalikdan singdirish payida bo'ling- farzandingizga o'zгалar

bilan muomala chog'ida boshqalarni g'iybat qilish, o'zgalarni mensimaslik, obro'si, boyligi yoki mansabiga qarab munosabat ko'rsatish ham odobsizlik ekanini uqtirib boring;- yoshi ulug' kishilar, ustozlar bilan muomalada ularning ko'ziga tik boqmay, gaplarini jim tinglash, savollarigagina javob qaytarish, buyruqlarini sidqidildan bajarish ham bolalar qalbiga jo qilishga e'tibor bering. Tarbiyadan tashqaridan bo'ladigan salbiy ta'sir bu, eng katta xatardir. Chunki farzandga oilada bu boradagi erkinlikka yo'l qo'yilmagach, u o'z qiziqish va rag'batlarini qondiradigan sabablarni tashqaridan izlay boshlaydi. Demak, ota-ona farzandining tashqi hayotiga ham katta e'tibor qaratishi talab etiladi., nima bilan shug'ullanishini nazorat qilish lozim .Farzandga bilim olish uchun sharoit yaratish ham ota-onaning vazifasidir. Payg'ambarimiz (s.a.v.): “Ilm olish har bir musulmon va muslima uchun farzdir”, deb marhamat qilganlarida, o'g'il va qiz farzandlarimizga ilm olish uchun barobar sharoitni ta'minlash kerakligini nazarda tutganlar. Yosh avlod yetuk va komil shaxs bo'lib voyaga yetishi uchun maktabgacha ta'lim muassasasi muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachilar bolajonlarni vaqtni unumli o'tkazishda foydalanishi mumkin bo'lgan usullardan yana biri-zamonaviy axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanishdir, bolada estetik tarbiya, go'zal manzaralardan zavq olish hissini shakllantirish uchun uni o'zi bilan birga tabiatdagi manzarali joylarga, muzeylarga olib borishi va shu bilan birga uning qalbida go'zallik, latofatini , odob-ahloqni singdirishi muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Krutetskiy V.V “Pedagogik psixologiya”. Toshkent 1979 y.
2. Siddiqova, S. (2021). ЎҚУВ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ. *Джизакское инновационное образование*, 1(1).
3. Siddiqova, S. (2022). УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА МУСТАҚИЛ ФИКРЛОВЧИ, ИЖОДКОР ШАХСНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК-

ПСИХОЛОГИК МАСАЛАЛАРИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(3).

4.Siddiqova, S. K. (2021). INCREASE THE CREATIVE ACTIVITY OF STUDENTS COGNITION IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *Theoretical & Applied Science*, (2), 24-26.

5.Siddiqova, S. (2022). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ БИЛИШ, ИЖОДИЙ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(3).

6.Siddiqova, S. (2021). ЎҚУВ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ЖИХАТЛАРИ. *Джизакское инновационное образование*, 1(1).

7.Isoqulov, M. (2022). ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ЖАҲОЛАТГА ҚАРШИ МАЪРИФАТ РУҲИДА ТАРБИЯЛАШДА ВЕРТУАЛ СТЕНДЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(3). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5620>

8.Isoqulov, M. (2022). ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИ ОНГИДА ЖАҲОЛАТГА ҚАРШИ КУРАША ОЛИШ ТАФАКУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ОИЛА ВА МАКТАБ ҲАМКОРЛИГИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 1(4). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4746>

9.Soibnazarova, M. (2022). YOSHLAR TARBIYASIDA ABDURAHMON JOMIYNNIG ASARLARIDAN FOYDALANISH. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 2(3). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5634>

10.Sanakulova, Z. A., & Soibnazarova, M. N. (2017). Modular training as a pedagogical technology. *Pedagogicheskoe masterstvo: X Mezhdunarodnaya nauchnaya konferentsiya, Moskva, iyun'2017*

11. Soibnazarova, M. (2022). ЁШ АВЛЮДНИНГ МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ТАРБИЯСИДА МУТАФАККИРЛАРНИНГ ФИКРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ. Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5573>
12. Санакулова, З. А., & Соибназарова, М. Н. (2017). Модульное обучение как педагогическая технология. In Педагогическое мастерство (pp. 20-22).
13. Санакулова, З. А., Соибназарова, М. Н., Бойтураева, Н. И., & Юлдашев, Ш. Э. (2016). Психологические условия формирования навыков самостоятельного мышления у учащихся. Молодой ученый, (8), 1022-1024.
14. Axmedova, S. (2022). МАКТАБЛАРДА О‘QITISH TIZIMINING TA’LIM OLUVCHILAR YOSHI BILAN BOG‘LIQLIGI. Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании, 2(4). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5879>
15. Axmedova, S. (2022). SAMARALI RAHBARLIKKA XOS XISLATLAR. Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании, 2(5). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5102>
16. Axmedova, S. (2022). TA’LIM MUASSASALARI RAHBARLARINING MA’NAVIY QIYOFASI, MADANIYATI VA UNGA QO’YILGAN TALABLAR. Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании, 1(4). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4904>
16. Munarova Rano Usarovna, Saparova Zamira Ibrahimovna, Yuldoshev Sardor Asliddin oâ€™tmgli, Akhmedova Shokhida Mukhtarovna. THE EDUCATION OF TALENTED STUDENTS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)-ISSN: 2455-3662, 2019
17. Axmedova, S. (2019). FACTORS AND TRENDS OF ECONOMIC GROWTH. Экономика и социум, (10), 17-20.
18. Shagzatova, B. X., Mirkhaydarova, F. S., Artikova, D. M., Axmedova, F. S., & Kudratov, N. A. (2019). FEATURES OF DIABETES MELLITUS IN HIV-

INFECTED PATIENTS. Toshkent tibbiyot akademiyasi axborotnomasi, (1), 149-152.

19.Munarova Rano Usarovna, Rozikova Munzira Dodoevna Uralov Anvar Abdumalikovich, Akhmedova Shokhida Mukhtarovna. (2020). Possibilities Of Self-Education In The Manifestation Of Genius Personality. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(08), 3626-3631. Retrieved from <http://sersec.org/journals/index.php/IJAST/article/view/25584>

20.Камолова, Ш. У., Келдиёрова, Г. Н., Ахмедова, Ш. М., Уралова, Ю. Б. К., Бегалиева, М. И. К., & Алимкулов, С. О. У. (2016). Абу Райхан Беруни о духовно-нравственном воспитании подрастающего поколения. Вестник науки и образования, (4 (16)), 43-45

21.Internet manbaasi: Wikipediya